TALABALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARIGA DOIR EMPIRIK TADQIQOT VA STATISTIK TAHLIL

Aminova Firdavus Shohrux qizi

Qo‘qon universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi, Psixologiya yo‘nalishi talabasi

firdaus.aminova1301@gmail.com

+998972711301

Annotatsiya. Mazkur maqola oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarda emotsional intellektni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini empirik tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida talaba shaxsining emotsional intellektual resurslari, xususan, empatiya darajasi hamda temperament xususiyatlari (ekstroversiya va nevrotizm) o‘rtasidagi izchil aloqadorliklar atroflicha o‘rganilgan. Empirik tadqiqotda Qo‘qon universiteti hamda Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 61 nafar birinchi bosqich talabalari ishtirok etdi. Ma’lumotlar N. Xollning “Empatiya” diagnostikasi hamda G. Ayzenkning temperament metodikalari yordamida to‘planib, olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar Shapiro-Wilk normal taqsimot testi, Spearman rangli korrelyatsiya tahlili va Mann–Whitney U o‘zaro farq mezonlari yordamida statistik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari talabalarda umumiy empatik xususiyatlar o‘rtacha darajada ekanligini, empatiyaning ijtimoiy obyektlarga nisbatan namoyon bo‘lishi o‘zaro musbat korrelyatsiyaga egaligini va ekstroversiya xususiyati bilan kuchsiz manfiy aloqadorlikda bo‘lishini ko‘rsatdi. Shuningdek, talabalarda emotsional intellekt ko‘rsatkichlarining jinsiy farqlarga ko‘ra statik jihatdan ahamiyatli bo‘linishga ega emasligi aniqlandi.

Abstract. This article is devoted to the empirical analysis of socio-psychological factors of formation and development of emotional intelligence in higher education students. Within the framework of the research, the consistent relationship between emotional intellectual resources of student personality, in particular, the level of empathy and temperament characteristics (extraversion and neuroticism) was studied in detail. The empirical study involved 61 first-year students studying in various fields of Kokand University and Abu Ali Ibn Sino Public Health Technical School. Data were collected using N. Hall's "Empathy" diagnostics and G. Eysenck's temperament methodologies, and the quantitative indicators obtained were statistically analyzed using the Shapiro-Wilk normal distribution test, Spearman rank correlation analysis, and Mann–Whitney U test. The results of the study showed that the general empathetic characteristics of students are at an average level, the manifestation of empathy towards social objects has a positive correlation with each other, and has a weak negative relationship with the trait of extraversion. It was also found that emotional intelligence indicators in students do not have a statistically significant gender difference.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, empatiya, temperament, ekstroversiya, nevrotizm, ijtimoiy-psixologik omillar, talaba shaxsi, hissiy o'zini boshqarish, kognitiv rivojlanish.

Key words: emotional intelligence, empathy, temperament, extraversion, neuroticism, socio-psychological factors, student personality, cognitive development.

Kirish. Zamonaviy globallashuv, shiddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va jadallashgan axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga nafaqat yuksak nazariy bilim va tor doiradagi kasbiy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, balki murakkab ijtimoiy munosabatlarga tez moslashuvchi, emotsional barqaror va kommunikativ jihatdan mukammal shaxsni shakllantirish vazifasi dolzarb muammo sifatida qo'yilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozori va ijtimoiy muhit

talablaridan kelib chiqqan holda, talabalardan faqatgina kasbiy ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmasdan, balki moslashuvchanlik, stressga chidamlilik va hissiy muvozanatni ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik fazilatlarni ham o‘z shaxsida faol namoyon etish talab etiladi. Bu o‘rinda shaxsning emotsional intellekti alohida o‘rin tutadi. Emotsional intellekt - insonning o‘z ichki tuyg‘ulari hamda atrofdagilarning hissiy holatlarini keng qamrovli anglash, farqlash va ularni muayyan maqsadlar yo‘lida samarali boshqarish qobiliyatlarining murakkab psixologik majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlar doirasida yoshlar kamoloti, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlarida ta’lim oluvchilarning shaxsiy sifatlari, ijtimoiy faolligi, psixologik salomatligi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish zaruriyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining yosh xususiyatlari hamda o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligi sababli tez-tez intellektual va emotsional zo‘riqishlarga, akademik stress va shaxslararo nizoli vaziyatlarga duch keladilar.

Bunday murakkab davrda talabalarning moslashuvchanlik xususiyatlarini oshirish hamda psixologik tushkunliklarning oldini olishda emotsional intellekt muhim psixologik himoya va belgilovchi omil vazifasini o‘taydi.

Bugungi kunda jamiyatda inson qadr-qimmati va shaxs manfaatlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida tibbiyot, pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy ta’minot kabi aholi bilan bevosita ishlashni talab etuvchi yordam beruvchi kasblarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Mazkur soha mutaxassislarini tayyorlashda ularning emotsional xabardorligi, empatik qobiliyati va hissiy barqarorligini yuksaltirish kasbiy yaroqlilik darajasini belgilaydi. Biroq shunga qaramay, talabalarda emotsional intellekt rivojlanishining o‘ziga xos ichki subyektiv (temperament, jins) va

tashqi obyektiv (ijtimoiy muhit, muloqot) omillari yaxlit tizim sifatida yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Talabalik davrining o‘zi inson hayotidagi o‘tish va indan biri bo‘lib, maktab yoki litsey tizimidan oily ta’lim tizimiga moslashish jarayoni shaxsdan yuksak ichki resurslarni talab qiladi. Hissiyotlarni anglash, boshqarish va ulardan ijtimoiy munosabatlarda unumli foydalanish talabaning nafaqat o‘qish samaradorligini, balki uning jamiyatda munosib o‘rin egallashini ham kafolatlaydi. Ushbu jihatlar mazkur empirik tadqiqotimizning dolzarbligini yanada oshiradi va uning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Asosiy qism. Inson hissiyotlari va ularni oqilona boshqarish, aql va tuyg‘ular uyg‘unligi masalalari qadimgi davrlardan buyon jahon va Sharq mutafakkirlari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Buyuk Sharq allomasi Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson kamolotining eng oliy nuqtasi sifatida aql va hissiy kechinmalarning muvozanatli birligini ko‘rsatadi (Forobiy, 1993). Forobiyning fikricha, inson o‘zining salbiy hissiyotlari va nafsini iroda kuchi bilan jilovlay olgandagina jamiyatda baxt-saodatga va yuksak ijtimoiy maqomga erisha oladi. Fozil shahar boshlig‘i va uning a’zolari, birinchi navbatda, o‘zgalarning ruhiy holatini tushunadigan va ularga nisbatan adolatli, empatik munosabatda bo‘la oladigan fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligi uqtiriladi.

Yana bir ulug‘ alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati va jismoniy salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur tahlil qilgan. U o‘zining mashhur “Tib qonunlari” asarida ruhiy holatlar, xususan, qo‘rquv, g‘azab, g‘am-g‘ussa va hatto haddan tashqari shodlik inson organizmida bevosita va keskin jismoniy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini, tana harorati hamda yurak faoliyatiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi (Ibn Sino, 1992). Ibn Sinoning ushbu buyuk qarashlari zamonaviy psixologiyadagi va psixosomatikadagi emotsional intellektning “hissiyotlarni anglash va jismoniy-ruhiy holatni nazorat qilish” komponentiga to‘la mos keladi. Shuningdek, Imom G‘azzoliy o‘zining “Ihyou ulumid din” asarida inson qalbining ichki dunyosini mukammal tadqiq

qilib, hissiyotlarni ijobiy va salbiy turlarga ajratadi va ularni ichki ma’rifat, nafs tarbiyasi orqali boshqarish lozimligini uqtiradi (G‘azzoliy, 2021). G‘azzoliyga ko‘ra, o‘zining g‘azab va his tuyg‘ularini jilovlay olgan inson ruhan yuksaklikka erishadi, bu esa hozirgi kundagi emotsional o‘z-o‘zini boshqara olishi nazariyalarining tarixiy poydevoridir.

G‘arb psixologiyasida “emotsional intellekt” atamasi XX asr oxirlariga kelib mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu tushunchani dastlab 1990-yilda amerikalik ijtimoiy psixologlar Piter Salovey va Djon Mayer o‘zlarining ilmiy maqolalarida muomalaga kiritdilar (Salovey & Mayer, 1990). Ular emotsional intellektni kognitiv qobiliyatlarning bir turi deb hisoblab, uni to‘rtta asosiy ierarxik komponent orqali asosladilar: hissiyotlarni idrok etish va ifodalash, hissiyotlarni fikrlash jarayoniga integratsiya qilish, hissiyotlarning sabab va oqibatlarini tushunish hamda shaxsiy va o‘zgalar hissiyotlarini boshqarish deb keltirishadi.

Keyinchalik, 1995-yilda taniqli psixolog va ilmiy jurnalist Daniel Goleman o‘zining mashhur “Emotional Intelligence” kitobida ushbu modelni kengaytirib, emotsional intellektning “aralash modelini” taklif etdi (Goleman, 1995). Goleman konsepsiyasiga ko‘ra, emotsional intellekt beshta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, bular o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya hamda ijtimoiy ko‘nikmalardir. Goleman inson hayotidagi muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvda an’anaviy aqliy intellekt koeffitsiyentiga (IQ) qaraganda emotsional intellekt koeffitsiyenti (EQ) ancha muhimroq va hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘plab amaliy misollar bilan isbotlab berdi.

Yana bir yirik olim Ruvon Bar-On emotsional intellektni insonning hayotiy talablar va bosimlarga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beruvchi hissiy-ijtimoiy kompetensiyalar tizimi sifatida talqin etadi va uning tarkibida optimizm, o‘z-o‘zini hurmat qilish kabi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi (Bar-On, 2006). MDH makonida esa D.V. Lyusin emotsional intellektning o‘ziga xos modelini taklif qilib, uni o‘zining

va o‘zgalarning his-tuyg‘ularini tushunish hamda boshqarish qobiliyati sifatida baholaydi (Lyusin, 2004). Lyusin ushbu qobiliyatlarning yo‘naltirilganligiga qarab ichki shaxsiy va shaxslararo emotsional intellekt turlarini ajratib ko‘rsatadi. Karimov va Nishonova (2018) kabi respublikamiz olimlari ham shaxs emotsional sohasining ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar va muloqot jarayonida shakllanishi qonuniyatlarini tadqiq etib, o‘zbek mentalitetida emotsional tarbiyaning o‘ziga xos jihatlarini ochib berganlar.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida emotsional intellektning ijtimoiy-psixologik komponentlarini empirik jihatdan o‘rganish va ularning o‘zaro aloqalarini tahlil qilish maqsadida maxsus psixodiagnostik tadqiqot tashkil etildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Qo‘qon universitetining “Boshlang‘ich ta’lim” va “Turizm” yo‘nalishlari hamda Qo‘qon shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumining “Hamshiralik ishi” va “Farmasevtika” yo‘nalishlarida tahsil olayotgan birinchi bosqich talabalari tanlab olindi. Ishtirokchilarning umumiy soni 61 nafarni tashkil etdi, ulardan 30 nafari erkak va 31 nafari ayol talabalardan iborat bo‘lib, gender muvozanati to‘liq ta’minlandi. Tadqiqotda N. Xollning “Empatiya” so‘rovnomasi hamda G.Yu. Ayzenkning temperament diagnostikasi (EPQ so‘rovnomasi) keng foydalanildi. To‘plangan empirik ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili zamonaviy dasturlar yordamida, xususan, Shapiro-Wilk testi, Spearman rangli korrelyatsiya tahlili va Mann–Whitney U statistik o‘zaro farq mezoni yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida aniqlangan dastlabki ko‘rsatkichlarga ko‘ra, respondentlarning 29,5 foizini yaqinroq aytganda 18 nafarini xolerik temperament tipiga mansub talabalar tashkil etgan. Shuningdek, 27,9 foizi yaqinroq hisoblaganda 17 nafari sangvinik, yana 27,9 foizi ya’ni 17 nafari melanxolik hamda 14,7 foizi ya’ni 9 nafari flegmatik temperament tipiga ega ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Bu holat guruhning

biologik va asab faoliyati jihatidan yetarlicha rang-barang va universal ekanligidan dalolat beradi.

Tavsifiy statistik tahlil natijalari talabalarda empatiya ko‘rsatkichlari quyidagicha o‘rtacha qiymat va standart og‘ish parametrlariga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ota-onaga nisbatan empatiya ko‘rsatkichi barcha ko‘rsatkichlar ichida eng yuqori bo‘lib, o‘rtacha 12,10 ballni tashkil etdi, uning standart og‘ish ko‘rsatkichi esa 3,613 ga teng bo‘ldi. Bu holat o‘zbek oila muhitida ota-ona va farzand munosabatlarining emotsional jihatdan o‘ta chuqurligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

O‘rganilgan boshqa shkalalarda quyidagi natijalar qayd etildi: notanish kishilarga nisbatan empatiya o‘rtacha 9,75 ballni (standart og‘ish 2,508), badiiy obrazlar va film qahramonlariga nisbatan empatiya o‘rtacha 9,41 ballni (standart og‘ish 2,512), hayvonlarga nisbatan empatiya o‘rtacha 9,21 ballni (standart og‘ish 2,464) tashkil etdi. Nisbatan eng pastroq o‘rtacha qiymatlar keksalarga nisbatan empatiyada (o‘rtacha 8,80 ball; standart og‘ish 2,489) va bolalarga nisbatan empatiya shkalalarida (o‘rtacha 8,67 ball; standart og‘ish 2,749) kuzatildi. Shaxs xususiyatlariga ko‘ra, talabalarning ekstroversiya ko‘rsatkichi o‘rtacha 6,51 ballni (standart og‘ish 1,963), nevrotizm ya’ni emotsional beqarorlik ko‘rsatkichi esa o‘rtacha 6,67 ballni (standart og‘ish 2,574) tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar talabalarda hissiy reaktivlik va tashqi muhitga yo‘naltirilganlik o‘rta-yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi.

Shapiro-Wilk normal taqsimot testi natijalari ota-onaga empatiya ($p=0,032$), notanishlarga empatiya ($p=0,041$), ekstroversiya ($p=0,011$) va nevrotizm ($p<0,001$) ko‘rsatkichlarida miqdoriy taqsimotning normal qonuniyatdan farq qilishini ko‘rsatganligi sababli, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ichki aloqalarni aniqlashda parametrik bo‘lmagan Spearman korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi va barcha hisob-kitoblar ishonchli tarzda amalga oshirildi.

Korrelyatsiya tahlili natijalari empatiyaning turli ijtimoiy obyektlarga yo‘naltirilgan tarkibiy qismlari o‘rtasida izchil ijobiy bog‘liqliklar borligini ochib berdi.

Xususan, ota-onaga bo‘lgan empatiya bilan hayvonlarga empatiya o‘rtasida to‘g‘ri va ishonchli bog‘liqlik (r = 0,263; p = 0,041) hamda notanish kishilarga empatiya ko‘rsatkichlari o‘rtasida musbat aloqa (r = 0,287; p = 0,025) tasdiqlandi. Bu shuni anglatadiki, oila muhitida ota-onasiga nisbatan yuksak g‘amxo‘rlik, hissiy tushunish va gumanistik munosabatni shakllantirgan talaba shaxsi ushbu emotsional munosabat modelini oiladan tashqaridagi subyektlarga – hayvonlarga va hayotda duch keladigan mutloq begona insonlarga ham ko‘chirish (proyeksiyalash) tendensiyasiga ega bo‘ladi. Shuningdek, hayvonlarga bo‘lgan empatiya bilan bolalarga empatiya (r = 0,360; p = 0,004) hamda notanishlarga empatiya (r = 0,286; p = 0,026) o‘rtasida ham o‘rtacha kuchdagi ishonchli musbat korrelyatsiya topildi. Bolalarga nisbatan empatik munosabat ham notanish kishilarga bo‘lgan hissiy sezgirlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri zanjirsimon bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi (r = 0,289; p = 0,024).

Tadqiqotning eng muhim va fundamental natijalaridan biri – ota-onaga bo‘lgan empatiya darajasi bilan temperamentning ekstroversiya xususiyati o‘rtasida statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli manfiy ya’ni teskari korrelyatsiyaning aniqlanganligidir (r = -0,377; p = 0,003). Shuningdek, empatiyaning umumiy integrallashgan ko‘rsatkichi va ekstroversiya o‘rtasidagi tahlilda ham xuddi shunday salbiy o‘zaro aloqa to‘liq o‘z tasdig‘ini topdi (r = -0,287; p = 0,025). Bu psixologik jihatdan shuni anglatadiki, ichki dunyoga yo‘naltirilganlik, vazminlik, mulohazakorlik va chuqur emotsional tahlilga moyillik (ya’ni introversiya belgilari) yuqori bo‘lgan talabalarda chuqur empatik munosabat, o‘zgalar dardin ich-ichidan his qilish qobiliyati kuchliroq rivojlanadi. Aksincha, o‘ta yuqori ekstrovertlik, ya’ni tashqi taassurotlarga beriluvchanlik, muloqotning yuzaki va o‘ta yuqori sur’atda kechishi (ayniqsa xolerik va ba’zi sangviniklarda) chuqur empatik his-tuyg‘ularning birmuncha pasayishiga yoki yuzaki tus olishiga olib kelishi mumkin. Nevrotizm ko‘rsatkichi bilan empatiya o‘rtasida esa statistik jihatdan ishonchli to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik aniqlanmadi, bu esa

hissiy barqarorlikning empatiya shakllanishiga bevosita to‘sqinlik qilmasligidan dalolat beradi.

Talabalarning jinsiy xususiyatlari ularning emotsional intellektual salohiyatiga qay darajada taasir etishini aniqlash maqsadida erkak va ayol talabalarning empatiya darajalari Mann–Whitney U o‘zaro farq mezoni yordamida qiyoslandi. Erkaklar guruhida (30 nafar) empatiya umumiy balli bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 30,07 ni, ayollar guruhida esa (31 nafar) 31,90 ni tashkil etdi. Mezonning yakuniy hisoblangan qiymatlari quyidagicha aniqlandi: U = 437,0; Z = -0,404; p = 0,686. Statistik ahamiyatlilik ko‘rsatkichi belgilangan me’yordan sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi sababli, ya’ni p ko‘rsatkichi 0,05 dan katta bo‘lganligi uchun, erkak va ayol talabalarning umumiy empatiya darajalarida statistik jihatdan ishonchli farqlar mavjud emasligi aniq ma’lum bo‘ldi. Bu natija an’anaviy gender stereotiplaridan farqli ravishda, zamonaviy oily ta’lim sharoitida tahsil olayotgan talaba yoshlarning emotsional-empatik ko‘rsatkichlari jins omiliga bog‘liq bo‘lmagan holda universal shakllanayotganini ilmiy jihatdan kafolatlaydi.

Muhokama va amaliy tavsiyalar. Olingan empirik-statistik natijalar talabalarda emotsional intellektning asosi bo‘lgan empatiyaning namoyon bo‘lishi ularning biologik temperament xususiyatlari, xususan, ekstroversiya-introversiya o‘qish bilan muayyan darajada bog‘liqligini ko‘rsatdi. Biroq emotsional intellekt faqatgina tug‘ma va biologik xususiyatlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy muhit, muloqot tajribasi va shaxsiy motivatsiya tizimida faol rivojlanuvchi dinamik ijtimoiy-psixologik fenomendir. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy ijtimoiylashuvi eng faol kechadigan palla hisoblanganligi sababli oliy ta’lim jarayonida talabalarning emotsional intellektual kompetensiyalarini maqsadli shakllantirish va tizimli rivojlantirish lozim.

Olingan natijalarning chuqur tahlili va talabalik davrining psixologik qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, oily ta’lim muassasalarida talabalarning

emotsional intellektini va empatik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-psixologik amaliy tavsiyalar tizimini taklif etish mumkin. Birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasalarining psixologik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari va tyutorlar tizimi hamkorligida talabalar uchun maxsus ishlab chiqilgan amaliy korreksion-rivojlantiruvchi trening dasturlarini amaliy joriy etish zarur deb hisoblanadi. Emotsional intellekt muvaffaqiyat omili sifatida talqin etiladigan bunday darslar talabalarda o‘z his-tuyg‘ularini chuqur anglash, ularni to‘g‘ri nomlash va eng muhimi, stressli hamda akademik zo‘riqish holatlarida salbiy emotsiyalarni ijobiy va konstruktiv tomonga yo‘naltirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, o‘quv jarayonining o‘ziga interfaol metodlarni kengroq singdirish va dars samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda vaziyatli tahlillar, rolli o‘yinlar va jamoaviy loyiha ishlaridan unumli foydalanish talabalarni boshqa insonlar, ya’ni guruhdoshlari, professor-o‘qituvchilar yoki kelajakdagi mijozlar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rishga, ya’ni empatik tafakkurni amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu esa talabalarda shaxslararo muloqot kompetensiyasini shakllantirib, oily ta’lim muhitidagi turli nizoli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Pedagog va amaliyotchi psixologlar talabalar bilan guruhlarda ishlash jarayonida ularning individual va tipologik temperament xususiyatlarini ham chuqur hisobga olishlari tavsiya etiladi. Masalan, o‘ta ekstrovert, ya’ni xolerik va sangvinik temperamentiga ega talabalarda muloqotning chuqurligi, faol tinglash ko‘nikmasini shakllantirishga alohida urg‘u berish lozim bo‘lsa, introvert ya’ni melanxolik va flegmatik talabalarda esa emotsional yopiqlikni bartaraf etish, hissiy ifodalilikni oshirish hamda jamoada faol muloqotga kirishish qobiliyatini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunday individual-differensial yondashuv har bir talabaning ichki salohiyatini ochishga yordam beradi.

Bundan tashqari, oily ta’lim muassasasi doirasida keng qamrovli gumanistik va ijtimoiy faol muhitni yaratish g‘oyat muhimdir. Talabalarni turli ijtimoiy-xayriya tadiqotlariga, volontyorlik harakatlariga, keksalar va bolalar uylariga moddiy va ma’naviy yordam berish loyihalariga faol jalb etish lozim. Bu kabi amaliy tadbirlar orqali talabalarning empirik natijalarda birmuncha pastroq chiqqan keksalarga va bolalarga nisbatan empatiya ko‘rsatkichlarini ijtimoiy faoliyat vositasida tabiiy ravishda yuksaltirishga va ularda umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Olib borilgan tizimli-nazariy va empirik-statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oliy ta’lim makonida talaba yoshlarning shaxs sifatida ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va kasbiy kamoloti shiddatli ijtimoiy-psixologik transformatsiyalar sharoitida kechmoqda. Tadqiqot natijalari shaxsning biologik asosi hisoblangan temperament xususiyatlari talabalardagi fundamental emotsional-empatik resurslar, ya’ni atrofdagilarning ruhiy holatini chuqur his qilish va anglash darajasi bilan izchil bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xususan, ekstroversiya ko‘rsatkichining yuqoriligi umumiy empatiyaning chuqurligi va ota-onaga bo‘lgan empatik munosabat tizimi bilan ishonchli manfiy korrelyatsiyaga ($r=-0,287$; $p=0,025$) ega ekanligi tasdiqlandi.

Temperament xususiyatlari barqaror makrotuzilma bo‘lib, u emotsional intellektning shakllanishida o‘ziga xos filtr vazifasini o‘taydi. Shunga qaramay, ekstroversiyaga xos muloqotning yuqori sur’ati emotsional intellekt poydevorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklamaydi, balki subyektning chuqur emotsional refleksiyaga (introversiyaga xos xususiyatlar) chalg‘ishini kamaytirib, hissiy kechinmalarning birmuncha yuzaki tus olishiga bilvosta zamin yaratadi. Matematik-statistik tahlil jarayonida aniqlangan oilaviy empatik modelning boshqa ijtimoiy obyektlarga (notanish kishilar va hayvonlarga) zanjirsimon ko‘chishi ($r=0,287$; $p=0,025$) talaba emotsional intellektining ijtimoiy muhitda proyeksiyalanish barqarorligini ko‘rsatadi.

Gender xususiyatlari tahlili esa (Mann–Whitney U testi: p=0,686>0,05) zamonaviy oliy ta’lim sharoitida talabalarning emotsional-empatik resurslari taqsimoti universal ekanligini, emotsional intellekt jins omiliga chiziqli ravishda bog‘liq emasligini ko‘rsatdi. Bu esa oliy ta’lim muassasasi amaliyotchi psixologlari, tyutorlari va pedagogik muhit hamkorligi tizimini yangi tarkibiy-korreksion sifat bosqichiga olib chiqish zarurligini belgilab beradi.

Tavsiyalar. O‘tkazilgan empirik tadqiqot xulosalariga asoslanib, talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- Amaliy treninglar dasturini joriy etish: Oliy ta’lim muassasalarining psixologik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari tomonidan talabalarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, stressli va akademik zo‘riqish holatlarida salbiy emotsiyalarni konstruktiv tomonga yo‘naltirish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi maxsus korreksion-rivojlantiruvchi treninglarni tizimli tashkil etish.
- Individual-differensial yondashuvni qo‘llash**:** Pedagog va amaliyotchi psixologlar talabalar bilan ishlashda ularning temperament xususiyatlarini hisobga olishlari lozim. Bunda o‘ta ekstrovert talabalarda faol tinglash va chuqur muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga, introvert talabalarda esa emotsional yopiqlikni bartaraf etish va jamoaviy muloqotga kirishish qobiliyatini rag‘batlantirishga urg‘u berish.
- Interfaol o‘qitish metodlarini kengaytirish: O‘quv jarayonida vaziyatli tahlillar (case-study), rolli o‘yinlar va jamoaviy loyiha ishlaridan unumli foydalanish orqali talabalarni emotsional refleksiyaga va empatik tafakkurni amalda qo‘llashga o‘rgatish.
- Ijtimoiy-gumanistik faoliyatga jalb etish: Talabalarni turli ijtimoiy-xayriya tadbirlariga va volontyorlik harakatlariga faol jalb etish orqali ularda tabiiy ravishda keksalarga, bolalarga hamda muhtoj shaxslarga nisbatan empatiya ko‘rsatkichlarini ijtimoiy faoliyat vositasida yuksaltirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. (1993). *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
2. Abu Ali ibn Sino. (1992). *Tib qonunlari: II jildlik saylanma*. Toshkent: Fan.
3. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence. *Psicothema*, 18, 13–25.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
5. Imom G‘azzoliy. (2021). *Ihyou ulumid din (Din ilmlarini jonlantirish)*. Toshkent: Hilol Nashr.
6. Izard, C. E. (1991). *The Psychology of Emotions*. New York: Plenum Press.
7. Karimov, H., & Nishonova, Z. (2018). *Shaxs psixologiyasi va emotsional tarbiya masalalari*. Toshkent: Fan.
8. Lyusin, D. V. (2004). Sovremennye predstavleniya ob emotsionalnom intellekte. V D. V. Lyusina & D. V. Ushakova (Eds.), *Sotsialnyy intellekt. Teoriya, izmereniya, issledovaniya* (ss. 29–36). Moskva: Institut psixologii RAN.
9. Nazari, K., & Emami, M. (2012). Hissiy intellekt: tushunish, qo‘llash va o‘lchash. *Journal of Applied Sciences Research*, 8(3), 1594–1607.
10. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.